

TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA TAFAKKURNING XUSUSIYATI VA TURLARI

ХАРАКТЕРИСТИКИ И ТИПЫ МЫШЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

CHARACTERISTICS AND TYPES OF THINKING IN THE PROCESS OF LEARNING

Ergasheva Surayyo

JDPI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Tafakkur – bu o'z tuzilishi va turlariga ega bo'lgan o'ziga xos faoliyat. Tafakkurning turlarga bo'linishi shakli, xususiyati, ochib berilganlik, yangililik va voqelikka moslik darajasiga ko'ra amalga oshiriladi

Аннотация

Мышление – это уникальная деятельность, имеющая свою структуру и виды. разделение мышления на типы основано на форме, характере, открытости, новизне и актуальности действительности.

Abstract


thinking is a unique activity that has its own structure and types. the division of thinking into types is based on the form, character, openness, novelty and relevance of reality.

Kalit so'zlar: tafakkur,shakliga ko'ra,xususiyatiga ko'ra,ochilganligiga ko'ra,yangiligiga ko'ra,voqelikka mosligiga ko'ra.

Ключевые слова: мышление, по форме, по признаку, по открытию, по новизне, по действительности.

Key words: thinking, according to form, according to signs, according to discovery, according to novelty, according to reality.

Tafakkur – bu o‘z tuzilishi va turlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos faoliyat. Tafakkurning turlarga bo‘linishi shakli, xususiyati, ochib berilganlik, yangililik va voqelikka moslik darajasiga ko‘ra amalga oshiriladi (10.2 rasm).



I.P.Pavlov ikkinchi signal tizimining ishi hamisha birinchi signal tizimi bilan o‘zaro o‘tkazish jarayonida hozir bo‘ladi, deb ta‘kidlagan. Ikkinchi signal tizimi asosida, birinchi signal bilan o‘zaro ta‘sir qilish jarayonida “dastlab umuminsoniy empirizm”ni va nihoyat odamning o‘z tevaragida olamni va uning o‘zini bilish uchun oliy qurol bo‘lgan fanni **yaratuvchi maxsus insoniy**, oliy tafakkur voqe bo‘ladi. Tafakkurning muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv - fiziologik asos bo‘lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol’ o‘ynaydi. Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari, tevarak -atrofdagi olam va turmush to‘g‘risidagi o‘z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkur ob‘ektini anglashi (bilish) tafakkur

jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o`zi idrok qilayotgan, tasavvur qilayotgan narsalar to`g`risida fikr qiladi. Tafakkur, odatda, nazariy va amaliy tafakkurlarga bo`linadi. Nazariy tafakkurda tushunchali va obrazli tafakkur, amaliy tafakkurda esa –ko`rgazmali-obrazli va ko`rgazmali-harakatli tafakkur ajratiladi.

Tushunchali tafakkur – bu ma`lum tushunchalar qo`llaniladigan tafakkur. U yoki bu aqliy masalalarni echishda boshqa odamlar tomonidan aniqlangan va tushunchalar, mulohazalar, xulosalar shaklida ifodalangan tayyor bilimlardan foydalanamiz.

Obrazli tafakkur – bu obrazlar yordamida mulohaza yuritish jarayonining bir turi. Ular xotiradan olinadi yoki tasavvurda hosil qilinadi. Ko`pincha tafakkurning bu turi badiiy ijodkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi odamlarda ustun bo`ladi.

Tushunchali tafakkur voqelikni aniq va umumlashtirgan holda aks ettiradi, lekin bunday aks ettirish mavhumdir. O`z navbatida, obrazli tafakkur atrofimizdagi olamni aniq va sub`ektiv aks ettirish imkonini beradi. Shunday qilib, tushunchali va obrazli tafakkurlar bir-birini to`ldiradi.

Ko`rgazmali- obrazli tafakkur obrazlarni qo`llash bilan bog`liq. Bu tafakkur odam biror masalani echishda turli obrazlarni, hodisalar va jismlar haqidagi tasavvurlarni tahlil qilishida, qiyoslashtirishida, umumlashtirishida namoyon bo`ladi.

Ko`rgazmali-harakatli tafakkur – mohiyati real jismlar bilan amalga oshiriladigan amaliy o`zgartiruvchi faoliyatdan iborat bo`lgan tafakkurning alohida turi. Tafakkurning bu turi biror-bir moddiy mahsulot ishlab chiqarish maqsadidagi mehnat bilan mashg`ul bo`lgan odamlarda kengroq ifodalanadi.

Yana til vositalari asosida vazifa bajaruvchi so`z-mantiqiy tafakkur mavjud bo`lib, u tafakkur tarixiy rivojlanishining so`nggi bosqichidir. Unga tushunchalar va mantiqiy hosilalarni qo`llash xosdir.

Amaliy tafakkur tajriba, amaliy harakatlar asosida amalga oshiriladi va aniq vazifalarni bajarishga qaratilgan, nazariy – tajriba bilan ish ko`rmasdan tushunchalardan foydalanadi. Diskursiv tafakkur – kengaytirilgan tafakkur, ichki sezgi kechishining tezligi, aniq ifodalangan bosqichlarning mavjud emasligi, oz

darajada anglanganligi bilan xarakterlanadi. Reproductive, ishlab chiqaruvchi tafakkur – bu namuna bo‘yicha tafakkur, ijodkorlik esa – yangi kashfiyotlar, yangi natijalarga olib boruvchi tafakkur. Realistik tafakkur voqelikni to‘g‘ri aks ettiradi, odam o‘z hulq-atvorini anglaydi, autistik tafakkur esa, asosan, ob‘ektga emas, affektga mos bo‘lganlarni ifodalaydi, ehtiyojni qondirishga, kelib chiqqan hissiy zo‘riqishni kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Tafakkurning aqliy jarayonning natijasi hisoblangan uch xil shakli: tushuncha, mulohaza va xulosa farq qilinadi.

Tushuncha – bu jism va hodisalarning umumiy, ahamiyatga ega bo‘lgan va farqlanuvchi belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushunchalar asosida hodisalar va jismlar haqidagi mavjud bilimlarimiz yotadi. U aniq va mavhum bo‘lishi mumkin. Jismning barcha belgilaridan aynan ushbu jism yoki o‘xshash jismlar guruhini xarakterlab beruvchi ma‘lum belgilar yig‘indisi ajratilgan bo‘lsa, u holda aniq bir tushuncha haqida gap ketadi. Bunday tushunchalarga shahar, g‘oya, jamiyat va boshqalar kiradi. Agar jismdagi biror-bir alohida belgi ajratilib, va bu belgi o‘rganish predmeti bo‘lib xizmat qilsa, alohida jism sifatida o‘rganilsa, mavhum tushuncha hosil bo‘ladi. Bunday tushunchalarga fidokorlik, tenglik, vijdoniylik va boshqalar kiradi.

Hukm – jismlar va hodisalar o‘rtasidagi aloqani aks ettiruvchi tafakkur shakli; biror narsani tasdiqlash yoki inkor etish. Tasdiqlovchi hukmga misol sifatida: «psixika miyaning vazifasi», «barcha metallar elektr tokini o‘tkazadi», inkor etishga – «suvda hech qanday yog‘ erimaydi» kabi hukmlarni keltirish mumkin.

Biz tasdiqlayotgan yoki inkor etayotgan hukmning ma‘lum sinfnining jislaridan birortasi, ba‘zilari yoki har qaysi jismga taalluqli bo‘lishiga bog‘liq ravishda hukmlar ayrim, xususiy yoki umumiy bo‘lishi mumkin. Ayrim hukm: «bu odam hech qachon aldov yo‘liga kirmaydi». Xususiy hukm: «ba‘zi metallar suvdan og‘irroq». Umumiy hukm: «suyuqlikdagi har bir jismga u siqib chiqargan suyuqlikka teng bo‘lgan bosim ta’sir ko‘rsatadi».

Bir yoki bir necha hukmlardan yangi hukm yuzaga keladigan tafakkur shakli xulosa deb ataladi. Boshqa hukmlar keltirib chiqariladigan boshlang‘ich

hukmlar xulosa dalillari deb ataladi. Masalan, barcha slanetslarning yonuvchanligi ma'lum, va ushbu modda slanets bo'lsa, u holda «ushbu moddaning yonuvchanligi» haqida xulosa yasash mumkin.

Xulosa chiqarish bitta yoki bir necha hukmlardan yangi hukm hosil qilishdir 3 xil xulosa chiqarish mavjud:

1. Induktiv xulosa chiqarish (yakka xulosa)
2. Deduktiv xulosa chiqarish (umumiy xulosa)
3. Analogik xulosa chiqarish (taxminiy xulosa)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.
3. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: SHark.-2000.- 112 b.